
Rishtonda mustaqillik bayrami arafasida bank ofisi foydalanishga topshirildi

Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz

“Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz” shiori ostida nishonlanayotgan Respublikamiz mustaqilligining 31 yilligi bayrami arafasida viloyatimiz shahar va tumanlarida o'nlab yangi ishlab chiqarish loyihalari ishga tushirilmoqda. Xususan, “Markaz” MFYda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligini oshirish maqsadida “Universalbank” tomonidan tashkil etilayotgan “Bank xizmatlari ofisi”larining navbatdagisi tumanimiz fuqarolariga o'z eshiklarini ochdi. Zamonaviy ofis iste'molchilarga keng ko'lamli moliyaviy va konsalting xizmatlarini ko'rsatish barobarida, hisob raqam va plastik kartalar ochish, kredit olish uchun ariza berish, omonatlarni rasmiylashtirish, barcha turdagi to'lovlar hamda xalqaro pul o'tkazmalarini bajarishi bilan ham ahamiyatlidir. Shuningdek, tumanda istiqomat qiluvchi 210 mingdan ziyod fuqarolar 24/7 rejimida ishlovchi bankomat va infokiosklardan ham kunning istalgan vaqtida erkin foydalanishlari mumkin. Unda milliy plastik kartalardagi mablag'larni naqdlashtirish, kommunal, uyali aloqa kabi qator to'lovlarni amalga oshirish imkoniyati mavjud.

2022-08-15 06:29:10